

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI

Atamuradov Sh.A.

MENEJMENT
ASOSLARI

Noiqtisodiy yo'nalishlar uchun mo'ljallangan
amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha
USLIBIY QO'LLANMA



Navoiy-2009 y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI
NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI

Kimyo-metallurgiya fakulteti
«Iqtisodiyot va menejment» kafedrası

Atamuradov Sh.A.

MENEJMENT

ASOSLARI

Noiqtisodiy yo'nalishlar uchun mo'ljallangan
amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha
USLIBIY QO'LLANMA

Navoiy-2009 y.

«Menejment asoslari» fanidan bakalavriatning noiqtisodiy yo'nalishlariga mo'ljallangan amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha uslubiy qo'llanma. –Navoiy: NDKI, 2009.

NDKI o'quv-uslubiy kengashi qarori bilan «TASDIQLANGAN» 2008 y. «___» _____ ___-sonli bayonnoma	NDKI KMF O'quv-uslubiy kengashi qarori bilan ma'qullangan. 2008 yil 3-sentabr 1- sonli bayonnoma	«Iqtisodiyot va menejment» kafedrasi yig'ilishi qarori bilan tavsiya etilgan. 2008 yil 29-avgust 1- sonli bayonnoma.
---	--	--

Ushbu uslubiy qo'llanma bakalavriatning noiqtisodiy yo'nalishlari yo'nalishlari bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga «Menejment asoslari» fanidan amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish uchun ko'maklashadi.

Tuzuvchi: **ass. Atamuradov Sh.A.**

Taqrizchilar:	NDKI «Iqtisodiyot va menejment» kafedrasi mudiri, i.f.d, professor	Ulashev I.O.
	NDPI «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent	Zoirov Z.X.

Muqqaddima

Bozor munosabatlari sharoitida menejment asoslari va xo'jalik yuritish mexanizmini bilish ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko'rsatadigan barcha mutaxassislar, rahbarlar va muhandislar uchun, shuningdek bakalavrlar uchun ham zarurdir.

Menejment – bu, qisqa qilib aytganda, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida uni ilmiy asosda boshqarishdir.

«Menejment asoslari» fani ishlab chiqarishni boshqarish, uning samaradorligini oshirish maqsadida mehnat jamoalari va ishlab chiqarish jarayonlariga tasir ko'rsatuvchi vositalar, usullar majmuasini o'rganadi hamda ularni takomillashtirishni taminlaydi.


Sanoat ishlab chiqarish tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni boshqarishga oid tashkiliy shakllarini nazariy asoslarini o'rgatish kursning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Talabalar tomonidan boshqarishni tashkil qilish usullarini tahlil qilish, loyihalash va takomillashtirishni o'zlashtirish hamda boshqarish sohasida mustaqil faoliyat ko'rsatishni taminlovchi ko'nikmalar hosil qilish «Menejment asoslari» fanini o'rgatishning asosiy maqsadidir.

Ushbu **amaliy mashg'ulotlar o'tish bo'yicha uslubiy qo'llanma** “Avtomatlashtirish va boshqarish”, “Elektroenergetika”, “Mashinasozlik texnologiyasi”, “Konchilik ishlari”, “Kon elektromexanikasi”, “Kasbiy ta'lim (konchilik ishlari)” bakalavriat yo'nalishlariga mo'ljallangan NDKI ning ilmiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan namunaviy dasturiga (2006 yil 29 martdagi 6 sonli bayonnoma) muvofiq holda tuzildi.

1-AMALIY MASHG'ULOT

MENEJMENT ASOSLARI FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI.



Reja:

- 1.1. Menejmentning mohiyati va vazifalari
- 1.2. Menejmentning predmeti va izlanish uslublari.
- 1.3. Kursning mazmuni va vazifalari.



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda menejment asoslari fanining predmeti va vazifalari, izlanish uslublarini asosiy tayanch soʻz va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va koʻnikmasini shakllantirishga koʻmaklashishdan iborat.




Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Inglizcha soʻz **"Management"** oʻzbek tilida boshqaruvni tashkil qilish maʼnosida tarjima qilinadi. Shunday qilib, umumiy rejada menejment boshqaruvni bildiradi, yaʼni u yoki bu faoliyat turini (tashkil etishni va rahbarlik qilishni) iqtisodiy moliyani va boshqa inson hayotidagi ishbilarmonlik sohasini tashkil qilish va boshqarishni bildiradi.

Menejment predmeti xoʻjalik yuritishning barcha darajalarida boshqarishning qonunlari (qonuniyatlari), tamoyillari va munosabatlarini oʻrganishdan iboratdir.


Menejmentning amaliy tomonlari quyidagi aniq vazifalarni hal etishga: iqtisodiyotni bozor munosabatlariga oʻtishiga, foyda olishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga, kishilar maʼnaviy darajalarini oʻstirish va boshqalarga qaratilganidir.

Menejerning vazifasi – qobiliyatli odamlarni izlab topish va ular ijodiy mehnat qilishlari uchun qulay sharoit yaratishdir.



Asosiy tayanch iboralar

+ menejment	+ ishbilarmon
+ menejer	+ bozor munosabatlari
+ biznes	+ boshqaruv
+ konsepsiya	+ ishbilarmonlik sohasi
+ tashkilot	+ boshqarishning qonunlari
+ tadbirkor	+ foyda olish
+ rahbar	+ samaradorlikni oshirish



Munozara uchun savollar

1. Menejmentga qanday bilimlar zarur?
2. Menejment nima?
3. Menejer va tadbirkor qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
4. Menejmentning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Menejmentning amaliy qismi nimani o'rganadi?
6. Boshqaruv munosabatlari deganda nimani tushunasiz?
7. Menejmentning qanday usullarini bilasiz?
8. Boshqaruv ob'ekti deganda nimani tushunasiz?
9. Menejmentning asosini nimalar tashkil qiladi?
10. Boshqaruvning eng asosiy bilish uslubi – qanday uslub va uning mazmuni nimadan iborat?



Mavzuga oid testlar

1. Boshqaruv funksiyasi deganda:

- A) u yoki bu ob'ektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan faoliyat tushuniladi
- B) korxonaning moddiy – texnika bazasini yaratishga qaratilgan faoliyat tushuniladi
- C) xodimlarni korxonaning rejasini bajarishga safarbar qilishga qaratilgan faoliyat tushuniladi
- D) a va b javoblar to'g'ri

2. Quyida qayd qilinganlarning qaysi biri boshqarish funksiyasi hisoblanadi:

- A) rejalashtirish
- B) tashkil qilish
- C) tartibga solish va muvofiqlashtirish
- D) rejalashtirish, tashkil qilish, tartibga solish va muvofiqlashtirish

3. Boshqarish faoliyati turlariga qarab boshqarish funksiyalari:

- A) xududiy va tarmoq funksiyalariga bo'linadi
- B) rahbar va bo'ysunuvchi funksiyalariga bo'linadi
- C) umumiy (asosiy) va aniq funksiyalarga bo'linadi
- D) barcha javoblar to'g'ri

4. Quyida qayd qilingan funksiyalarning qaysi biri boshqarishning iqtisodiy funksiyasiga kiradi:

- A) mehnat sharoitini yaratish
- B) xodimlarni insoniylik ruhida tarbiyalash
- C) marketing xizmatini uyushtirish
- D) ishlab chiqarishni tashkil qilish.

5. Quyida qayd qilingan funksiyalarning qaysi biri boshqarishning sotsial funksiyasiga kiradi:

- A) mablag'larning doiraviy oborotini ta'minlash
- B) xodimlarning sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish
- C) xodimlarni mehr-shavqatli va o'zaro munosatlarda sabr toqatli bo'lish ruhida tarbiyalash
- D) axborotlar oqimini tashkil qilish.

6. Quyida qayd qilingan funksiyalarning qaysi biri boshqarishning ma'naviy-ma'rifiy funksiyasiga kiradi:

- A) foyda olishni ta'minlash
- B) xodimlarning sotsial madaniy-ma'naviy ehtiyojlarini qondirish
- C) boshqarish apparati xodimlari o'rtasida mas'uliyatlarni belgilash
- D) xodimlarga halollikni, adolat tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qilish.

7. Quyida qayd qilingan usullarning qaysi biri boshqarish usuli bo'lib hisoblanadi:

- A) tashkiliy-ma'muriy usullar
- B) iqtisodiy usullar
- C) sotsial-ruhiy usullar
- D) barcha javoblar to'g'ri

8. Boshqarishning iqtisodiy usullari:

- A) boshqarish apparatining muayyan tuzilmasini tuzishga asoslanadi
- B) buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish ularning baja-rilishini nazorat qilishga asoslanadi

- C) kadrlarni to'g'ri tanlashga asoslanadi
- D) iqtisodiy manfaatlardan foydalanishga asoslanadi.

9. Boshqarishning tashkiliy – ma'muriy usullari:

- A) umumjamiyat manfaatlardan foydalanishga asoslanadi
- B) jamoa manfaatlardan foydalanishga asoslanadi
- C) har bir boshqaruv bo'g'inining funksiyalarini belgilashga asoslanadi
- D) buyruqlar, farmoyishlar va qo'llanmalar chiqarish ularning baja-rilishini nazorat qilishga asoslanadi.

10. Boshqarishning sotsial – ruhiy usullari:

- A) ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagi "psixologik iqlimni", har bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga asoslanadi
- B) kadrlarni to'g'ri tanlashga asoslanadi
- C) jamoalarda sog'lom ijtimoiy ruhiy muhitni yaratishga asoslanadi
- D) barcha javoblar to'g'ri.

11. Menejer – bu:

- A) yollanma boshqaruvchilar bo'lib aholining alohida ijtimoiy qatlamidir
- B) maxsus tayyorgarlik ko'rgan, boshqarishning sir-asrirlari, qonun-qoidalarini chuqur biluvchi malakali mutaxassisdir
- C) boshqaruvchi
- D) barcha javoblar to'g'ri

12. Boshqaruv uslubi – bu:

- A) boshqaruv funksiyalarini samarali bajarish maqsadida biror bir organning yoki rahbarning bo'ysinuvchilariga aniq ta'sir ko'rsatish usuli va yo'llari majmuasidir
- B) boshqaruv jarayonida kelib chiqadigan muammolarni hal qilish usullari, yo'llari, majmuasidir
- C) ishlash, boshqarishdagi o'ziga xos yo'l, usuldir
- D) rahbarning o'ziga xos yondashuvi.




Quyidagi jadvalga qarab boshqaruv maktablarini rivojlanishi haqida gapirib bering

Maktablar nomi	Asosiy namoyondalar	Fanning yutugi	Tashqi muhit
1. Ilmiy Boshqaruv (1885-1920)	F.Teylor. F.Gilbert. G.Gant. X.Emerson.	Ilmiy menejment ishtiyoqni taraqqiyot etishi vazifalar va taqdirlash tizimi Samarali injiniring	Ommaviy ishlab chiqarish Standart mahsulot Tarmoqlar chegaralangan tashkilotlar o'sayotgan tovarlar bozori
2. Ma'muriy (1920-1950)	A.Fayol, L.Urvik. M.Veber	Menejmentning birligi nazariyasi, Funksional, Prinsiplar, Sotsial psixologiya	Menejerlar ta'siri yuksalishi, ularning kasbiy mahoratini tan olinishi
3. Insoniy munosabatlar (1930-1950)	E.Meyo, A.Maslou, U.Bernard	Guruhlar sotsiologiyasi tashkil etish nazariyasi Menejmentning sotsiologik tomonlari	Extiyotning to'yinishi Differensiyalangan takomillashgan mahsulot Tayyor menejerlarga ehtiyoj
4. Xulqiy (xatti xarakat) (1950-xozirgacha)	D. Mak Gregor, F.Gersberg, F.Abrams	"X" va "Y" nazariyasi menejerlar fikrlashlarida Boshqaruv san'ati	Bozorga yo'naltirilgan
5. Boshqaruv fani (1950-xozirgacha)	N.Viner, I.Eshbi, V. Leontev I.Ansoff	Tizimli tahlil menejmentga axborot nazariyasi Balans modeli strategik rejalashtirish	Korporatsiyalar hajmi yo'nalishi Xarbiy sanoat majmuasi rivojlanishi Bozorga yo'naltirilgan rivojlanishi Inflyatsiya
6. Holatiy maktab (1990-xozirgacha)	D. Tomson, P.Lorens, V.Ouchi, G.Minsberg M.Porter. T.Dil, A.Keniyedi	Xolatiy ko'rinishi "Z" nazariyasi tashkiliy tuzilmalar Raqobat strategiyasi Korporativ madaniyat	Iqtisodiy farovonlik yuksak Koinotdagi raqobat Xalqaro savdo Texnik taraqqiyot yuqori texnologik munosabatlar Xodimlarning yuqori malakasi

2-AMALIY MASHG'ULOT

MENEJMENTNING TASHKILIY TUZILMALARI



Reja:

- 2.1. Menejment tashkiliy tuzilishi haqida tushuncha.
- 2.2. Tashkiliy tuzilmalar turlari.
- 2.3. Tashkiliy tuzilmalarni loyihalashtirish.



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda menejmentning tashkiliy tuzilishi, tashkiliy tuzilmalar turlari va tashkiliy tuzilmalarni loyihalashtirish kabilarni asosiy tayanch so'z va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.




Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Menejmentning tarkibiy tuzilishi deganda boshqaruv bo'g'inlari va bosqichlari miqdori va tarkibi tushuniladi.

Boshqaruv bosqichlari - bu boshqarish biror darajasidagi ma'lum bo'g'inlar yig'indisidir. Shu belgisiga ko'ra boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari - ko'p bosqichli (ko'p bo'g'inli), uch, ikki bosqichli (bo'g'inli) bo'ladi.


Boshqarishning tashkiliy tuzilmasining asosiy turlari to'g'ri chiziqli va funksional turlaridir. Ular birikishi asosida turli xil chiziqli-funksional tuzilmalar tarkib topadi.

Maqsad boshqaruv nazariyasining asosiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Boshqaruv maqsadlarini shakllantirish boshqaruvning boshlang'ich, unga erishish esa yakuniy bosqich hisoblanadi.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|---------------------|----------------------------|
| + tashkiliy tuzilma | + bosqich |
| + aralash tuzilma | + tashqi omil |
| + davlat organlari | + ichki omil |
| + matritsa | + egiluvchan tuzilma |
| + divizional | + ma'muriy hududiy tuzilma |



Munozara uchun savollar

1. Menejmentning tarkibiy tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
2. Boshqaruv bo'g'inlari nima?
3. Boshqarishning tashkiliy qurilmalari qanday bozor talablariga javob berishi kerak?
4. Boshqaruv bo'g'ini va zvenosi o'rtasida qanday farq bor?
5. Hududiy va tarmoq boshqarish organlari o'rtasida qanday farq bor?
6. Chiziqli tuzilma va chiziqli-funksional tuzilmalar qanday ustunlik va kamchiliklarga ega.
7. Korxona boshqaruvi qanday maqsadni ko'zlaydi?
8. Boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini boshqarishda maqsadli yondashish mohiyati nimada?
9. Umumdavlat boshqaruvi tashkilotlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
10. Maqsadlar daraxti to'g'risida tushuncha bering?



Mavzuga oid testlar

1. Boshqarish tuzilmasi deganda:

- A) boshqarish maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarini bajaruvchi bir-biri bilan bog'langan turli boshqaruv organlari va bo'g'inlarining majmuasi tushuniladi
- B) boshqaruv organlari tizimida quyi organlarning yuqori organlarga bo'ysinishi va ular o'rtasidagi o'zaro aloqa tushuniladi
- C) bo'linmalar yig'indisi, ularning tarkibi va o'zaro aloqa shakllari tushuniladi
- D) b va c javoblar to'g'ri.

2. Tashkiliy tuzilmalarni hosil qiladigan boshqarish organlari:

- A) boshqaruv tizimi shaklida bo'ladi
- B) boshqaruv bo'g'inlari shaklida bo'ladi
- C) boshqaruv bosqichlari shaklida bo'ladi
- D) b va c javoblar to'g'ri.

3. Agar boshqarishning hamma funksiyalari korxona rahbari qo'lida to'planib barcha quyi rahbarlar va ishlab chiqarish yacheykalari unga bo'ysinsa, u holda boshqarishning bunday tashkiliy tuzilmasi:

- A) chiziqli (pog'onali) tuzilma ko'rinishida bo'ladi
- B) chiziqli shtabli tuzilma ko'rinishida bo'ladi
- C) funksional tuzilma ko'rinishida bo'ladi
- D) chiziqli funksional tuzilma ko'rinishida bo'ladi.

4. Chiziqli shtabli tuzilma:

- A) har bir chiziqli rahbar qoshida ixtisoslashgan xizmatlar, maslahatchilar kengashi, ya'ni shtablar tuzish orqali tashkil etiladi
- B) har bir boshqaruv bo'g'iniga muayyan funksiyalarni biriktirib qo'yish orqali tashkil etiladi
- C) barcha qo'yi rahbarlar va ishlab chiqarish yacheykalarini korxona rahbariga bo'ysindirish orqali tashkil etiladi
- D) b va c javoblar to'g'ri.

5. Funksional tuzilma:

- A) barcha qo'yi rahbarlar va ishlab chiqarish yacheykalarini korxona rahbariga bo'ysindirish orqali tashkil etiladi
- B) har bir boshqaruv bo'g'iniga muayyan funksiyalarni biriktirib qo'yish orqali tashkil etiladi
- C) har bir chiziqli rahbar qoshida ixtisoslashgan xizmatlar, maslahatchilar kengashi, ya'ni shtablar tuzish orqali tashkil etiladi
- D) a va b javoblar to'g'ri.

6. Quyida qayd etilgan organlarning qaysi biri boshqarishning umumdavlat organlariga kiradi:

- A) viloyat hokimiyati
- B) tuman hokimiyati
- C) oliy sud
- D) shahar hokimiyati.

7. Quyida qayd etilgan organlarning qaysi biri boshqarishning mahalliy organlariga kiradi:

- A) oliy kengash:
- B) vazirlar mahkamasi
- C) vazirlik va qumitalar
- D) tuman hokimiyatlari.

8. Quyida qayd etilgan organlarning qaysi biri tarmoq organlari bo'lib hisoblanadi:

- A) vazirliklar, qo'mitalar
- B) siyosiy partiyalar
- C) kasaba uyushmalari
- D) ijodiy uyushmalar.

9. Quyida qayd etilgan organlarning qaysi biri o'z-o'zini boshqarish organlari hisoblanadi:

- A) assosiatsiyalar
- B) kasaba uyushmalari
- C) shirkat xo'jaliklari
- D) jamoa xo'jaliklari.

10. Firmaning istiqbolini belgilash, uning kelajagi uchun ahamiyatli chora tadbirlarni ishlab chiqish bilan:

- A) yuqori pog'onadagi menejerlar shug'ullanadi
- B) o'rta pog'onadagi menejerlar shug'ullanadi
- C) quyi pog'onadagi menejerlar shug'ullanadi
- D) vazirlik


11. Quyi pog'onadagi menejerlar:

- A) firma istiqbolini belgilash bilan shug'ullanadi
- B) firma faoliyatining ayrim tomonlarini boshqarish bilan shug'ullanadi
- C) sex, brigada doirasidagi ishni tashkil qilish va uni boshqarish bilan shug'ullanadi
- D) ishlab chiqarishni tashkil etish.




Q uyidagi chizmalarda keltirilgan boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini izohlang


Chiziqli




Funksional



Chiziqli shtabli




Chiziqli funksional



Shartli belgilar: R - rahbar, B - boshliq, U - usta, F - funksional rahbar, Sh - shtab, 1,1; 1,2;1,3 – funksional bo'limlar

3-AMALIY MASHG'ULOT

BOSHQARUV USULLARI, RAHBARLIK VA UNING MADANIYATI. BOSHQARUV QARORINI ISHLAB CHIQUISH VA QABUL QILISH BOSQICHLARI



Reja:

- 3.1. Menejmentning iqtisodiy, tashkiliy farmoyish va ijtimoiy-psixologik usullari.
- 3.2. Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularning tasnifi, boshqaruv qarorlariga qo'yiladigan talablar.
- 3.3. Boshqaruv qarorlarini tayyorlash jarayoni va qabul qilish.



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda boshqaruv usullari va boshqaruv qarorlarini asosiy tayanch so'z va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.



Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Boshqaruv usullari bu boshqaruv sub'ektining boshqaruv ob'ektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir o'tkazishning usullari, ya'ni boshqaruvchining u boshqarayotgan ishlab chiqarish kollektiviga qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uning faoliyati koordinatsiyasini ta'minlashdir.

Iqtisodiy usullarning mohiyati xodimlar va ishlab chiqarish jamoasiga ular manfaati bo'lishini ta'minlovchi iqtisodiy sharoit yaratishdan iboratdir. Boshqaruv usullari tizimida iqtisodiy usullar yetakchi o'rinni egalaydi.

Ta'sir etishning farmoyish usullari cheklovchi hujjatlarda ko'zda tutilmagan mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda kundalik jadal boshqarish maqsadida qo'llaniladi.


Buyruq – bu rahbarning qo‘l ostidagi xodimlardan ma‘lum vazifani bajarishni yozma yoki og‘zaki ravishda talab qilishidadir. Buyruq faqat chiziqli boshqaruv tizimi rahbari tomonidan beriladi.

Boshqaruv qarorlari funksional mazmuni bo‘yicha iqtisodiy, tashkiliy, koordinatsion, rag‘batlantiruvchi, boshqaruvchi va nazorat qarorlarga bo‘linadi.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|-------------------------------|---------------------------------|
| ✚ iqtisodiy vositalar | ✚ qaror |
| ✚ boshqarish usullari | ✚ tashkiliy qaror |
| ✚ sotsiologiya | ✚ programmalashtirilgan qaror |
| ✚ psixologiya | ✚ programmalashtirilmagan qaror |
| ✚ huquqiy usullar | ✚ ratsional qaror |
| ✚ tarbiyaviy usullar | ✚ qaror qabul qilish mezon |
| ✚ nomarkazlashtirish prinsipi | ✚ tavakkalchilik |
| ✚ ijtimoiy javobgarlik | ✚ aniqlik sharti |
| ✚ nizo | ✚ noaniqlik sharti |
| ✚ asabni buzish | ✚ ehtimol |



Munozara uchun savollar

1. Iqtisodiy boshqaruv usullarining qanday yutuq va kamchiliklarini tasavvur etasiz?
2. Tashkiliy-farmoyish (ma'muriy) usullarning mohiyati nima?
3. Shaxsning qanday ruhiy xossalarini bilasiz?
4. Ma'naviy rag'batlantirish deganda nimani tushunasiz?
5. Boshqaruv qarorlari qanday ko'rinishlarga bo'linadi?
6. Tezkor va strategik qarorlar nima bilan farqlanadi?
7. Boshqaruv qarorlari samaradorligiga qanday omillar ta'sir etadi?
8. Boshqaruv qarorlariga qanday talab qo'yiladi?
9. Boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligi deganda nimani tushunasiz?
10. Qarorni bajarishning yakunlovchi bosqichi deganda nimani tushunasiz?



Mavzuga oid testlar

1. **Quyida qayd qilingan xislatlarning qaysi biri rahbarda mujassamlangan bo'lishi kerak?**
A) dovyuraklik
B) sabrlilik
C) tavakkalchilik
D) barcha javoblar to'g'ri.
2. **Quyida qayd qilingan xislatlarning qaysi biri rahbarni el nazaridan qolishiga olib keladi:**
A) mahalliychilik
B) balandparvozlik
C) ta'magarlik
D) barcha javoblar to'g'ri
3. **Quyida qayd qilinganlarning qaysi biri rahbarlarga xos xarakter bo'lishi mumkin?**
A) janjalkash, urushqoq
B) kurashchan
C) g'iybatchi
D) umidsiz.
4. **Quyida qayd qilinganlarning qaysi biri rahbar aytishi mumkin bo'lmagan javoblardir:**
A) men o'z fikrimni aniq va to'la aytaolmadim
B) mening ish tajribam shu
C) men xatoga yo'l qo'ydim va uni tuzataman
D) buni boshqacha tushuntirishga harakat qilaman.
5. **Quyida qayd qilinganlarning qaysi biri rahbar aytishi mumkin bo'lgan javoblardir:**
A) asrlab yashaysanu, asrlar o'rganar ekansan
B) bu mening aybim emas
C) siz meni tushunaolmaysiz
D) siz nohaqsiz, men o'z fikrimda qolaman.

6. Qaror – bu

- A) mavjud holatning, bo'lishi lozim bo'lgan holat bilan mos tushmasligi natijasida yuzaga keluvchi jarayondir
- B) bajarilishi mumkin bo'lgan ishning aniq bir yo'lini tanlab olishdir
- C) bir necha muqobil (alternativ paydo bo'lganda vujudga keladigan jarayondir
- D) a va b javoblar to'g'ri

7. Qaror qabul qilish – bu :

- A) maqsadga erishish uchun tashkilot rahbarining o'z vakolati va amalkorligi doirasida alternativa (muqobil)ni tanlash jarayonidir
- B) u yoki bu yo'lni tanlab olishda bir to'xtamga kelish yoki qanday bo'lmasin bir fikrga kelishdir
- C) menejerning fikri zikrini doim band qilib turadigan tashvishdir
- D) barcha javoblar to'g'ri

8. Quyidagi qayd qilinganlarning qaysi biri boshqaruv qarorlarining unsuri bo'lib hisoblanadi:

- A) vazifa
- B) vosita
- C) javobgarlik
- D) barcha javoblar to'g'ri

9. Strategik qaror:

- A) bir xil muammoga daxldor bo'lib, barcha bo'g'inlar uchun birdek amal qiladi
- B) tor doiradagi muammoga ta'luqli bo'lib, korxonaning muayyan bir bo'limi yoki bir guruh xodimlar yuzasidan qabul qilinadi
- C) yuqori boshqaruv organlari tomonidan tub va istiqbolli dasturlarni ishlab chiqish maqsadlarida qabul qilinadi
- D) korxonaning joriy, tezkor rejalarini tuzish maqsadida qabul qilinadi.

10. Amal qilish davriga qarab qarorlar:

- A) sotsial – iqtisodiy qarorlarga bo'linadi
- B) texnikaviy qarorlarga bo'linadi
- C) stereotip va tashabbusli qarorlarga bo'linadi
- D) strategik va taktik qarorlarga bo'linadi.

11. Takrorlanish va yangilik darajasiga qarab qarorlar:

- A) an'anaviy va tavsiyali qarorlarga bo'linadi
- B) aniq va noaniq qarorlarga bo'linadi

- C) yakka boshchilik va kollegial prinsipi asosida qabul qilingan qarorlarga bo'linadi
- D) "ringi" usuli asosida qabul qilingan qarorlarga bo'linadi.

12. Stereotip qarorlar - bu:

- A) novatorlarcha, mazmuniga ko'ra istiqbolli bo'lgan qarorlardir
- B) rahbar faoliyati qat'iy ravishda yo'riqnomalar, me'yoriy hujjatlar doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan hollarda qabul qilinadigan qarorlardir
- C) odatiy vaziyatlarda qabul qilinadigan qarorlardir
- D) tavakkal bilan chala axborotga asoslanib qabul qilingan qarorlardir.

13. Konsensus tamoyili:

- A) turli ittifoq yoki birlashmalar ro'y rost ma'lum bo'lib turgan vaziyatlarda, har xil fikrlar raqobat qiladigan hollarda amal qiladi
- B) oldinga surilayotgan muqobil fikrni so'zsiz qo'llab – quvvatlash hollarida amal qiladi
- C) bu qarorlarni ishlab chiqish jarayonida barcha bahsli masalalar va turli – tuman fikrlar yuzasidan bir bitimga kelish yoki kelishishdir
- D) a va b javoblar to'g'ri

14. Boshqaruvchining shaxsiy fazilatlari ta'sirida quyidagi qarorlarning qaysi biri qabul qilinishi mumkin:

- A) mo'tadil, muvozanatlashgan qarorlar
- B) turtki beruvchi qarorlar
- C) tavakkal (riskli) qarorlar
- D) barcha javoblar to'g'ri.


15. Quyida qayd qilingan bosqichlarning qaysi biri qarorni ishlab chiqish jarayoni tarkibiga kiradi?

- A) vaziyatni tahlil qilish
- B) muammoni aniqlash
- C) mezonlarni tanlash
- D) barcha javoblar to'g'ri.




Quyidagi sxemani izohlang

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish sxemasi



STRATEGIK REJALASHTIRISH VA UNI AMALGA OSHIRISH



Reja:

- 4.1 Strategik rejalashtirishning maqsad va vazifalari
- 4.2 Strategik rejalashtirishda muhit tahlili.
- 4.3 Strategiyalarning turlari.
- 4.4 Korxona missiyasi.



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda strategik rejalashtirishning maqsad va vazifalari, strategiya turlari va korxona missiyasi to'g'risidagi tushunchalarni asosiy tayanch so'z va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.




Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Strategik rejalashtirish barcha boshqaruv vazifalarini o'zaro birlashtirib, korxona boshqaruvida asos yaratganligi va uning rivojlanishini ta'minlaganligi uchun ham menejmentning muhim elementi bo'lib hisoblanadi.

Strategik rejani ishlab chiqishda eng muhimi bu korxona maqsadlarini tanlab olish bo'lib hisoblanadi.


Tashqi va ichki muhit tahlili korxonaning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab olish, muhimlik darajasiga ko'ra ularni taqsimlab chiqish va shu asosida korxonaning vazifaviy hududini belgilab olish imkoniyatini beradi.

Strategik muqobillikni ishlab chiqish va uning tahlili: Ishlab chiqish; yakunlash; tahlil; baholash bosqichlaridan iborat.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|----------------------------|-------------------------------|
| ✚ Strategik rejalashtirish | ✚ maqsadlar klassifikatsiyasi |
| ✚ tashqi muhit | ✚ innovatsiyalar |
| ✚ menejerlar dunyoqarashi | ✚ iqtisodiy omillar |
| ✚ strategik boshqaruv | ✚ raqobatchilik omillari |
| ✚ korxona strategiyasi | ✚ ishlab chiqarish |
| ✚ maqsadlar | ✚ bozor talabi |
| ✚ ichki va tashqi muhit | ✚ sotuv hajmi |



Munozara uchun savollar

1. Strategik rejalashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. Strategik rejalashtirishning maqsad va vazifalarini tushuntiring?
3. Strategik rejalashtirish jarayonida boshqaruvning qanday turlarini mavjud?
4. Strategik muqobillikni ishlab chiqish va uning tahlili?
5. Tashqi va ichki muhit tahlili?
6. Strategiyalarning qanday asosiy turlarini bilasiz?
7. Tezkor harakatlanish strategiyasi qanday holatlarda qo'llaniladi?
8. Bog'liq diversifikatsiya strategiyasi qanday holatlarda qo'llaniladi?
9. Yo'nalishni o'zgartirish strategiyasi qanday holatlarda qo'llaniladi?
10. Hujum va himoya strategiyasi qanday holatlarda qo'llaniladi?



Mavzuga oid testlar

1. O'ta e'tiborli hollarni oldindan bashorat qilish maqsadida ishlab chiqiladigan strategiyalar:

- A) diversifikatsiyalashgan strategiyalar deyiladi
- B) maxsus strategiyalar deyiladi
- C) funksional strategiyalar deyiladi
- D) mujassamlashtirilgan strategiyalar deyiladi

2. Diversifikatsiyalashgan strategiya:

- A) korxonalarning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan mahsulotlar turini

- kengaytirish oldidagi vazifalarning amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi
- B) korxonaning yaxlit faoliyatini o'zida jamlagan mo'ljalni ifodalaydi
 - C) korxonaning ayrim bo'limlari va xizmatlari oldidagi vazifalarning amalga oshirish yo'llarini ifodalaydi
 - D) juda e'tiborli hollarni oldindan bashorat qilish maqsadida ishlab chiqilgan mo'ljalni ifodalaydi.

3. Strategik boshqaruv – bu:

- A) korxonaning istiqboldagi maqsadi va imkoniyati bilan xodimlar manfaatini uyg'unlashtirishga mo'ljallangan uzoq muddatli boshqaruv usulidir
- B) strategik maqsadni amalga oshirishga qaratilgan boshqaruv faoliyatidir
- C) korxonaga uzoq davrga berilgan topshiriqdir
- D) barcha javoblar to'g'ri

4. Strategik reja – bu:

- A) bozor holatini asosli o'rganish va oldindan baholash bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishni tashkil etish hamda shu yo'sinda yaxshi foyda topishni uyushtirishga qaratilgan faoliyatdir
- B) korxona faoliyatidagi joriy tadbirkorlarni ma'lum tartibga va qonun qoidalarga solib turuvchi rejalardir
- C) korxonaga uzoq davrga berilgan topshiriqdir
- D) b va c javoblar to'g'ri.

5. Quyida qayd qilingan bosqichlarning qaysi biri strategik rejalashtirishning oltinchi bosqichi bo'lib hisoblanadi:

- A) tashqi muhitni tashkil qilish
- B) kuchli va kuchsiz tomonlarni tashkil qilish
- C) strategiyani baholash
- D) muqobilni tahlil qilish va strategiyani tanlash.

6. Quyida qayd qilingan qaysi omillar korxonaning tashqi muhitiga ta'sir qiluvchi omillar bo'lib hisoblanadi:

- A) iqtisodiy omillar
- B) siyosiy omillar
- C) raqobat
- D) barcha javoblar to'g'ri

7. Siyosiy omillarni tahlil qilish jarayonida:

- A) inflyatsiya sur'ati, soliq stavkasi, bandlik darajasiga e'tibor beriladi
- B) mamlakatlararo savdodagi ta'rif kelishuvlariga e'tibor beriladi

- C) bozor muvozanatiga e'tibor beriladi
- D) ishlab chiqarishdagi texnologiya holatiga e'tibor beriladi.

8. Raqobat omillarini tahlil qilish:

- A) raqobatdosh korxonalarning hatti harakatlarini kuzatishga, ularni nazorat qilishga imkon beradi,
- B) ishlab chiqarishdagi texnologiyaning holatini, uning o'zgarish sur'atini, zamon talabiga javob bera olishini aniqlashga imkon beradi
- C) korxonaning to'lovchanlik darajasini aniqlashga imkon beradi
- D) barcha javoblar to'g'ri

9. Menejment sohasidagi tadqiqotchilar muqobilning qaysi turlarini e'tirof etishadi:

- A) o'sish
- B) cheklangan o'sish
- C) kamayish
- D) a va b javoblar to'g'ri

10. Cheklangan o'sish muqobili (strategiyasi)ni:

- A) korxona iqtisodiy tanazulga uchragan davrda tanlanadi
- B) korxona juda og'ir sharoitga tushib uning ahvoli yomonlashib borayotgan hollarda tanlanadi
- C) asosan texnologiyasi barqaror bo'lgan korxona rahbarlari tanlaydi
- D) texnologiyasi tez-tez o'zgarib turadigan va iqtisodiyoti tez sur'at bilan o'sayotgan korxona rahbarlari tanlaydi

11. O'sish muqobili (strategiyasi):


- A) texnologiyasi tez-tez o'zgarib turadigan va iqtisodiyoti tez sur'at bilan o'sayotgan korxonalar uchun qo'llaniladi
- B) korxona iqtisodiy tanazulga uchragan davrlarda qo'llaniladi
- C) korxona juda og'ir sharoitga tushib uning ahvoli yomonlashib borayotgan hollarda qo'llaniladi
- D) asosan texnologiyasi barqaror bo'lgan korxonalarda qo'llaniladi.

12. Kamayish muqobili (strategiyasi):


- A) asosan texnologiyasi barqaror bo'lgan korxonalarda qo'llaniladi
- B) texnologiyasi tez-tez o'zgarib turadigan va iqtisodiyoti tez sur'at bilan o'sayotgan korxonalar uchun qo'llaniladi
- C) korxona halokatga giriftor bo'layotgan holda qo'llaniladi
- D) korxona iqtisodiy tanazulga uchragan holda qo'llaniladi.



Quyidagi sxemani izohlang



ISHLAB CHIQRISH VA XODIMLARNI BOSHQARISH USULLARI



Reja:

- 5.1. Ishlab chiqarish jamoasi haqida tushuncha.
- 5.2. Ishlab chiqarish jamoasining tashkil topishi.
- 5.3. Boshlang'ich ishlab chiqarish jamoasining ijtimoiy-psixologik iqlimi.



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda ishlab chiqarish va xodimlarni boshqarish usullari, ishlab chiqarish jamoasi, uning turli iqlimi va muhitini asosiy tayanch so'z va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.



Mavzuga oid asosiy tushunchalar

«Kollektiv» so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib butunlik, jamoa degan ma'noni bildiradi. Ishlab chiqarish jamoasi deganda esa korxonalardagi rahbarlardan tortib oddiy ishchilargacha tushuniladi.

Mehnat jamoasi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida qatnashar ekan, eng kam sarf xarajat qilgan holda sifatli mahsulot ishlab chiqarishga, muayyan ish hajmini bajarishga intilmog'i zarur.


Norasmiy yoki ijtimoiy-psixologik tarkib shaxsiy mayl va xush ko'rmaslik, qiziqishlar umumiyligi, xarakterlar o'xshashligi, jamoat obro'siga ega bo'lishi asosida vujudga keladigan norasmiy munosabatlarni aks ettiradi. U kishilarning ruhiy va ahloqiy xususiyatlariga ta'siri ostida vujudga keladi.

Zamonaviy ishlab chiqarishda rahbarning murakkab vazifasi, ya'ni davlat, jamoa va shaxsning qiziqishlarini birlashtirishni bilishi lozim. Bundan tashqari u ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yishi lozim.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|-----------------------------|-----------------------------------|
| ✚ jamoa | ✚ mehnat unumdorligi ko'rsatkichi |
| ✚ rahbar xodim | ✚ siyosiy-tarbiyaviy ish |
| ✚ birdamlik | ✚ ijtimoiy jarayonlar |
| ✚ o'zaro yordam prinsiplari | ✚ mehnat munosabatlari |
| ✚ moddiy boyliklar | ✚ ijtimoiy-demografik tarkib |
| ✚ progressiv o'zgarishlar | ✚ ijtimoiy-ruhiy vaziyat |
| ✚ huquqiy muhofaza | ✚ demokratlashtirish. |



Munozara uchun savollar

1. Boshqaruv munosabatlari tizimida shaxs tushunchasi nima?
2. Shaxsning professional va funksional sifatining tartib qoidalari nimadan iborat?
3. Ishlab chiqarish jamoasida shaxsning intizomi deganda nima tushunasiz?
4. Ta'lim xizmatining iste'molchisi sifatida unga qanday huquqlar beriladi?
5. Korxananing ruhiy tuzilishini yaxshilashda rahbarning vazifasi nimadan iborat?
6. Korxonada xizmat qilayotgan ishchilar o'z huquqlarini qanday himoya qilishlari lozim ?
7. Ijtimoiy-demografik tarkib deganda nimani tushunasiz?
8. Jamoa orasida to'g'ri va teskari aloqani izohlang
9. Zamonaviy rahbarning asosiy vazifalarini keltiring
10. Ishlab chiqarish jamoasining sosial –psixologik iqlimi?



Mavzuga oid testlar

1. Korxona deb nimaga aytiladi?

- A) korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun shaxslar jamoasi
- B) korxonaning o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun shaxslar jamoasining faoliyati
- C) ikki yoki undan ortiq kishining birgalikda ishlashi
- D) maqsadlari bir-biriga mos tushgan shaxslar jamoasi

2. Boshqarishning sotsial-ruhiy usullari:

- A) ishlab chiqarish jamoalarini, ulardagi «psixologik vaziyatlarni», xar bir xodimning shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga asoslanadi
- B) kadrlarni to'g'ri tanlashga asoslanadi
- C) jamoada sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratishga asoslanadi
- D) iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi

3. Xodimlarni tanlash va ishga qabul qilish uchun xarajatlarga nimalar kiradi?

- A) e'lon, reklama, turli kuzatish va so'rovlar, tibbiy tekshirish uchun xarajatlar va boshqalar
- B) e'lon va reklama xarajatlari
- C) xodimlarni tanlash va ularni tibbiy tekshirishdan o'tkazish uchun xarajatlar
- D) xodimlarga sarflanadigan xarajatlar

4. Ijtimoiy – psixologik usullar – bu:

- A) kishilarning ruhiy holatini va ma'naviy manfaatlarini hisobga olgan holda ta'sir o'tkazish
- B) boshqarish ob'ektining moddiy manfaatlarini hisobga olgan holda ta'sir o'tkazish
- C) xodimlar va bo'g'inlar o'rtasidagi ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan munosabatlarni hisobga olgan holda ta'sir o'tkazish
- D) jamoadagi ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar xususiyati bilan bog'langan

5. Odamlar texnika bilan birgalikda nima deyiladi?

- A) mehnat resurslari
- B) sistema
- C) sotsiotexnik sistema
- D) jamoa, mehnat resurslari

6. Boshqaruv pog'onasi:

- A) tashkilot jamoalarining o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi
- B) yuqori tashkilot davlat tomonidan tasdiqlangan va huquqiy turga ega bo'lgan munosabatlar
- C) bir boshqarish pog'onasidagi teng huquqli xodimlarning munosabatlari.
- D) Bir zvenoning boshqasiga bo'ysunish ketma-ketligi.

7. Tashkilot maqsadlariga va o'z maqsadlariga yetishish uchun o'zini va boshqalarni qiziqtirish:

- A) rejalashtirish.
- B) tashkil etish.
- C) rag'batlantirish.
- D) muqobilini tanlash.

8. Mehnat resurslarini boshqarish nima?

- A) Chiqimdagi mahsulot birligini kirimdagi mahsulot birligiga nisbati
- B) Resurslarni rejalashtirish, xodimlarni to'plash, tanlov, ish haqi va imtiyozlarni aniqlash, korxonaga moslashtirish, o'qitish, baholash, mansabdan ko'tarish, tushirish, rahbar xodimlar tayyorlash.
- C) Samaradorlik, ilg'orlik, istiqbollilik, kompelekslilik, tezkorlik, maqbullik, oddiylik, ilmiylik, ko'p bo'g'inlilik, avtonomlilik, rejalilik, barqarorlik.
- D) Rag'batlantirish, ma'lumotlanish, ishontirish, majburlash usuli.

9. Kadrlarni boshqarish nima?

- A) bu tashkilotning butun tarmog'ini rejalashtirish, koordinatsiyalash va nazorat qilishdir;
- B) bu tashkilotni nazorat qilish;
- C) bu tashkilotni koordinatsiyalash va rejalashtirish;
- D) xodimlarni nazorat qilish va ishni to'g'ri taqsimlash;


10. Gorizontal mehnat taqsimoti:

- A) Barcha ishni uni tuzgan komponentlari bo'yicha ajratish
- B) Barcha ishni bo'ysinuvchi bo'g'inlarga ajratish
- C) Xarakatlarni harakatlarga muvofiqlashtirish ishlarini xarakatlardan ajratish
- D) Ishni og'ir yengilligi, oddiy murakkabligi bo'yicha ajratish.



Quyidagi chizmani sharxlab bering

Nomzodni mezonlarini baholash



6-AMALIY MASHG'ULOT

RAG'BATLANTIRISH NAZARIYALARI, USULLARI, TURLARI VA MODELLARI. BOSHQARUVDA VAKOLAT VA MAS'ULIYAT



Reja:

- 6.1. Mehnatni rag'batlantirishni tashkil qilishni takomillashtirishning yo'llari va mazmuni.
- 6.2. Mehnatni rag'batlantirishning usullari.
- 6.3 Vakolat va mas'uliyat tushunchalari hamda ularning zarurligi
- 6.4 Boshqaruv vakolatlarining turlari



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda mehnatni rag'batlantirish usullari, vakolat va mas'uliyat, boshqaruv vakolatining turlarini asosiy tayanch so'z va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.



Mavzuga oid asosiy tushunchalar


Rag'batlantirish bu inson omilini keng demokratik asosida faollashtirish, uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qilishni boshqarishdir.

Rag'batlantirishning ikkita omili mavjud bo'lib, «iste'dod» va o'zini qanday tutish orqali yuqori darajaga erishish, ya'ni «qobiliyat» omillaridir. Rag'batlantirish, iste'dod va qobiliyat omillari doimo o'zaro bog'lanishda amalga oshiriladi. Chunki qobiliyatli va iste'dodli ishchi xodimlar rag'batlantiriladi.

Menejmentning evolyutsion bosqichlarida menejerlar rag'batlantirishning quyidagi uchta usulini ko'rsatadilar. Bular:


1. An'anaviy usul.
2. Insoniy munosabatlar usuli.
3. Insoniy zahiralar usuli.

Boshqaruv tizimida rahbarlar tomonidan o'z qo'li ostidagi xodimlarga o'zi javobgar bo'lgan vazifalarni hal etish yoki ishlarni amalga oshirish huquqining berib qo'yilishi **boshqaruv vakolatlari** deb yuritiladi.



Asosiy tayanch iboralar

✚ rag'batlantirish	✚ huquq
✚ g'amxo'rlik qilish	✚ rahbar
✚ e'tiborli funksiya	✚ lavozim
✚ ijtimoiy xizmat ko'rsatish	✚ vakillik huquqi
✚ samarali faoliyat	✚ umumiy mas'uliyat
✚ rag'batlantirish nazariyalari	✚ funksional mas'uliyat
✚ umumiy madaniyat	✚ boshqaruv bo'g'ini
✚ moliyaviy mukofot	✚ nazorat
✚ ijodiy faollik	✚ murakkablik
✚ ijtimoiy ehtiyoj	✚ muhimlik
✚ samarali tizim	✚ turli-tumanlilik
✚ ma'naviy munosabat	✚ markazlashgan
✚ shaxsning ehtiyoji	✚ markazlashmagan
✚ vakolat	✚ biznes dinamikasi
✚ mas'uliyat	✚ soliq solish xususiyatlari



Munozara uchun savollar

1. Mehnatni rag'batlantirish nima?
2. Ijtimoiy xizmat ko'rsatish faoliyatining muhim tomoni nimalardan foydalanishni tashkil etadi?
3. Rag'batlantirish to'g'risida qanday nazariyalar mavjud?
4. Rag'batlantirishning nechta omili mavjud?
5. Rag'batlantirishning qanday usullarini bilasiz?
6. Shaxsning ehtiyoji deganda nimani tushunasiz?
7. Vakolat deganda nimani tushunasiz?
8. Mas'uliyat va vakolat tushunchalarning bog'liqligini tushuntiring?
9. Idoraviy vakolatlar qanday apparatlar orqali amalga oshadi?
10. Vakolatlarining qanday turlarini bilasiz?



Mavzuga oid testlar

1. Motivlashtirish – bu:

- A) ruhiy omil bo'lib, shaxs faolligining manbasi, sababi, dalili va har turli ehtiyojlaridir
- B) xodimlarni jonli mehnat faoliyatiga rag'batlantiruvchi vositadir
- C) kishilar faoliyatini ruhiy yo'llar bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir
- D) barcha javoblar to'g'ri

2. Quyida qayd qilingan ehtiyojlarning qaysi biri birlamchi ehtiyojlarga kiradi:

- A) fiziologik ehtiyojlar
- B) sotsial ehtiyojlar
- C) ma'rifatga bo'lgan ehtiyojlar
- D) ma'naviyatga bo'lgan ehtiyojlar

3. Amerikalik ruhshunos Abraham Maslouning motivatsiya nazariyasi:

- A) boisiy tozalanish nazariyasi deb yuritiladi
- B) ehtiyojlar ustunligi nazariyasi deb yuritiladi
- C) "gigiyenik omillar" nazariyasi deb yuritiladi
- D) kutish nazariyasi deb yuritiladi.

4. Frederik Gersbergning motivatsiya nazariyasi:

- A) kutish nazariyasi deb yuritiladi
- B) adolatlilik nazariyasi deb yuritiladi
- C) boisiy tozalanish nazariyasi deb yuritiladi
- D) ehtiyojlar ustunligi nazariyasi deb yuritiladi

5. Xizmat qiluvchi apparat:

- A) rahbariyatga o'z vakolati doirasida xizmat qiladi. Bunga kadrlar bo'limi misol bo'la oladi
- B) o'z bilim sohalari bo'yicha chiziqli rahbarga maslahatlar beradi
- C) rahbar nimani talab qilsa o'shani bajaradi
- D) b va c javoblar to'g'ri

6. Vakolat – bu:

- A) vakillik huquqini beruvchi xujjat, ishonch qog'ozi, tilxat
- B) biror davlat tomonidan o'zga yerda ta'sis etilgan va uning manfaatlarini ko'zlab

ish ko'radigan muassasa

C) vakolati bor, vakillik xuquqiga ega bo'lgan sub'ekt kabilar

D) barcha javoblar to'g'ri

7. Quyida qayd qilingan vakolatlarning qaysi biri farmoyishli vakolat turiga kiradi:

A) tavsiyali vakolatlar

B) chiziqli vakolatlar

C) muvofiqlashtiruvchi vakolatlar

D) hisob va nazorat qilish bo'yicha vakolatlar.

8. Quyida qayd qilingan vakolatlarning qaysi biri idoraviy vakolatlar turiga kiradi:

A) funksional vakolatlar

B) tavsiyali vakolatlar

C) murosaga keltiruvchi vakolatlar

D) barcha javoblar to'g'ri

9. Chiziqli vakolatlar:

A) tashkilotlarning iyerarxik tuzilishining paydo bo'lishi bilanoq vujudga kelgan bo'lib, u yakka xokimlik tarzda rahbarlik qilishga asoslanadi

B) odatda bil vosita aloqalar sharoitida amalga oshirilib, ular ma'lum doirada cheklangan bo'ladi

C) faqat tavsiya xarakteriga ega bo'ladi

D) da'vat etuvchi vakolatlardir.

10. Funksional vakolatlar:

A) da'vat etuvchi vakolatlardir

B) tavsiya xarakteriga ega bo'ladilar


C) odatda bilvosita aloqalar sharoitida amalga oshirilib, ular ma'lum doirada cheklangan bo'ladi

D) hamkorlikda qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan bog'liq vakolatlardir.




Quyidagi chizmani sharxlab bering

A.Maslou ishtiyojlar piramidasi



BOSHQARUVDA NAZORAT VA UNING TURLARI



Reja:

- 7.1 Boshqaruv nazorati, uning mohiyati, shakllari va amalga oshirish vositalari.
- 7.2 Boshqaruv nazorati tizimida iqtisodiy tahlil.
- 7.3 Menejment va moliyaviy nazorat.



Mavzuning maqsadi:

Talabalarda boshqaruv nazorati, uning mohiyati, nazorat tizimida iqtisodiy tahlil moliyaviy nazorat kabilarni asosiy tayanch so'z va iboralar hamda masalalar, muammoli savollar, krossvord va boshqotirmalar yechish orqali bilim va ko'nikmasini shakllantirishga ko'maklashishdan iborat.



Mavzuga oid asosiy tushunchalar

Nazoratning funksiyalariga quyidagilar kiradi: faoliyat natijalari haqidagi malumotni yig'ish, ishlov berish va tahlil qilish, ularni rejalashtirgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslash, mo'ljallangan maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqish.

Moliyaviy nazorat har bir xo'jalik bo'linmalarining moliyaviy hisobotlarini muhim iqtisodiy ko'rsatkichlarning standart shakllari bo'yicha qabul qilish orqali amalga oshiriladi.

Tahlilning iqtisodiy aniq maqsadiga binoan har hil iqtisodiy ko'rsatkichlar ishlatiladi. Bu ko'rsatkichlar firma faoliyatiga sonli va sifatli baho beradi.


Tashkiliy moliyaviy nazorat bo'linmalar orqali boshqarishning har bir sathida amalga oshiriladi. Yuqori pog'onadagi nazorat esa nazorat apparati orqali

amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish bo'linmalari va qaramog'idagi firmalar faoliyati ustidan nazoratni buxgalteriya, moliyaviy xizmat va rejalashtirish tizimi orqali bajariladi.



Asosiy tayanch iboralar

- | | |
|--------------------------------|-----------------------|
| ✚ boshqarmaga oid nazorat | ✚ moliyaviy holat |
| ✚ boshqaruv funksiyalari | ✚ ma'muriy nazorat |
| ✚ nazorat funksiyalari | ✚ marketing |
| ✚ tahlil | ✚ rejalashtirish |
| ✚ foyda darajasi | ✚ tannarx |
| ✚ ishlab chiqarish harajatlari | ✚ baho |
| ✚ kapital quyilmalar | ✚ firmaning faoliyati |



Munozara uchun savollar

1. Boshqaruv nazorati va uning mohiyatini tushuntiring?
2. Boshqaruv nazorati shakllari va amalga oshirish vositalari.
3. Boshqaruv nazorati tizimida iqtisodiy tahlil?
4. Boshqaruvda moliyaviy nazoratning ahamiyatini tushuntiring.
5. Korxona faoliyatini nazorat qilishning mohiyati va ahamiyatini tushuntiring.
6. Nazoratning qanday funksiyalarini bilasiz?
7. Korxona faoliyatini moliyaviy tahlil qilishda qaysi jihatlariga ahamiyat beriladi?
8. Firmaning iqtisodiy potensialini xarakterlaydigan ko'rsatkichlarni izohlang
9. Firmaning xo'jalik faoliyatini xarakterlaydigan ko'rsatkichlar qaysilar?
10. Xalqaro amaliyotda hisob va tahlilning qanday usullari qo'llanadi?



Mavzuga oid testlar

1. Boshqaruv funksiyalarini ko'rsating:

- A) Demokratik, avtokratik, aristokratik.
